

**CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANI INGLIZ TILI TARJIMASIDA
TARJIMON CHRISTOFER FORD TALQINI**

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik kafedrasida tayanch-doktorant

Jumanova Shohista Rofiyevna

Kalit so'zlar: Badiiy tarjima, asliyat, manba tili, roman-dilogiya, til va madaniyat, xalq, tarjima, Rossiya imperiyasi, Zebi obrazi.

Annotatsiya: Mazkur maqola badiiy tarjimaning o'rni, Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarining ingliz tili tarjimasiga bag'ishlanadi. Maqolada roman haqidagi ayrim ma'lumotlar kiritilgan bo'lib, asosan, asarning ingliz tilidagi tarjimoni Kristofor Fort haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Аннотация: Данная статья посвящена роли художественного перевода, английскому переводу произведения Чо Лпона "день и ночь". Статья включала некоторую информацию о романе, в основном информацию о Кристофере Форте, английском переводчике произведения.

Abstract: This article is devoted to the role of literary translation, the English translation of Cho Lpon's work "day and night". The article included some information about the novel, mainly information about Christopher Fort, the English translator of the work.

Tarjima insoniyat sivilizatsiyasida muhim rol o'ynaydi. Tarjima hayot, turmush-tarzi fan-yutuqlarini bir tildan ikkinchi tilga yetkazib beruvchi vositadir. "Tarjima-bu mavjud lingvistik nutqning ma'nosini bir tildan boshqasiga o'tkazuvchi aqliy faoliyat bo'lib sanaladi. Bu lisoniy mavjudotlarni bir tildan ularning ekvivalentlariga boshqa tilga o'tkazish jarayoni. Tarjima-bu matnning mazmunini manba tilidan maqsadli tilga o'tkazuvchi jarayondir¹". Tarjima qilinadigan til manba tili, asliyat (SL), tarjima qilinadigan til esa maqsadli til (TL) deb ataladi. Tarjimon yuqori lingvistik sezgirlikdan tashqari, manba tilini ham, maqsadli tildan ham yaxshi xabardor bo'lishi kerak, chunki u tarjima qilingan manbada yozuvchining niyati, asl o'y-fikrlarini iloji boricha aniq va ravshanlik bilan yetkazilishi kerak.

Badiiy tarjima-tarjimonlik faoliyatining alohida yo'nalishi bo'lib, badiiy asarlarning bir tildan ikkinchisiga yozma tarjimasini hisoblanadi. Badiiy tarjimaning asosiy murakkabligi faqat ma'noni yetkazib berish emas, balki noyob mualliflik qobiliyatini, uslubini, estetikasini, til vositalarining boyligini, shuningdek, matnda mavjud bo'lgan muhit, hazil-mutoyiba, xarakter va asardagi qahramon kayfiyatni yetkazib berishdan iborat. Ko'plab xorijiy adabiyotlarni o'qiyamiz. Lekin chet ellik yozuvchilarning kitoblarini asl tilda tez-tez o'qiyapmizmi? Tasavvur qiling-a, kitob sahifalarida yaratilgan qiziqarli dunyoga "yo'l boshchilar" bo'lib sanalgan badiiy matnlarning tarjimonlari bo'lmaganida, ko'plab kitobxonlar uchun qanchadan-qancha adabiy asar mavjud bo'lmasligini ko'z oldimizga keltiraylik. Badiiy tarjima insoniyat kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Har bir kishi bolalikdanoq o'z hayot davomida u bilan bog'langan bo'ladi (masalan, Andersen, Grimm aka-uka ertaklari, ushbu keltirilgan badiiy asar namunalari alifboni o'rganishdan oldin, mustaqil ravishda bolalar qiziqib mutolaa qilishadi). Statistikaga ko'ra, tarjimoni mutolaa qiluvchilardan ko'ra asosan, matnlarni asl nusxada o'qiydiganlar ancha ko'p ma'lumotga ega bo'lishadi. Hech kimga sir emaski, har qanday yozuvchi o'zining asarlarini

¹ Foster, M. (1958) Translation from/in Farsi and English. Retrieved April, 2007, p20 from <http://www.parasa.ts.com/index.htm>

nafaqat mahalliy kitobxonlar , balki butun jahon kitob mutolaa qiluvchilari tomonidan tan olinishni xohlaydi. Yuqorida keltirilgan maqsadga erishish uchun esa sifatli va aniq badiiy tarjima unga qo‘l kelishi mumkin. Eng yorqin yozilgan badiiy asarlar tarjimon tomonidan aniq va ravon yoki aksincha yetkazib berilishi hamda bu holat o‘quvchiga turlicha ta‘sir qilishi mumkin. Badiiy tarjimonlarning vazifalari nafaqat badiiy asarlarni tarjima qilish, balki gazetalar, saytlar va jurnallar uchun publitsistik va reklama matnlarini tarjima qilishni ham o‘z ichiga oladi. Badiiy tarjima sohasiga xotiralar, skriptlar, filmlarga subtitrlar, qo‘shiq matnlari ham kiradi. Nasr yoki she‘rning badiiy tarjimasini amalga oshirish tarjimondan ulkan mahoratni talab qiladi . Bu holatda tarjimon-xuddi shu yozuvchi yoki shoir kabi o‘ylashi, muallif dardlari, ichki kechinmalarni anglashi, asarni qayta yaratishi lozim va buning uchun u kuchli bilimga hamda iste‘dodga ega bo‘lish kerak. Shuning uchun tarjimonlar orasida badiiy tarjima eng murakkablardan biri hisoblanadi. Bu biznes tarjimasini bilan taqqoslanmaydi, bu yerda kutilgan ma‘lumotlarni yetkazish uchun standart iboralar, estetik did, mahorat talab qilinadi. Badiiy tarjima sinxron tarjimadan tubdan farqlanadi, unda og‘zaki tarzda emas, balki yozma tarzda fikrni to‘g‘ri shakllantirish uni badiiy tasviriy vositalar bilan yetkazib berish muhimdir. Badiiy tarjima, shuningdek, rasmiy yoki ilmiy-texnik tarjimalardan tubdan farq qiladi, bunday tarjima turida juda aniqlik bilan deyarli so‘zma-so‘z tarjima qilishni talab qiladi. Har qanday til badiiy tarjimasida asarning muhiti va noyob mualliflik uslubi maksimal darajada saqlanishi kerak. Shuni ta‘kidlash kerakki, biz hech qachon ma‘lum bir xorijiy muallifning asarini mutolaa qilganimizda, uning iste‘dodini e‘tirof etamiz-u , uning asarlarini tarjima orqali yetkazib bergan tarjimonning mahorat darajasini biroz bo‘lsa-da unutimiz. Badiiy matnda yozuvchining fikrini yetkazib berish, tarjima tilidagi iboralar va maqollar, ma‘lum bir mamlakat haqidagi madaniy ma‘lumotlarning ta‘sirchan miqdori va tarjima tilining tashuvchilari saqlab qolish juda murakkab, badiiy tarjimini faqat keng bilimga ega bo‘lgan mahoratli tarjimongina uddasidan chiqqa oladi, ushbu tarjima turi tarjimondan katta so‘z boyligi ulkan bilimni talab qiladi. Badiiy tarjimada bir qator xususiyatlar va qiyinchiliklar mavjud. Shunisi e‘tiborga loyiqki, badiiy matnlar, qoida tariqasida, tarjimondan yuqori ixtiro, fantaziya va ajoyib professionallik talab qiladigan juda ko‘p ifoda vositalarini o‘z ichiga oladi. Badiiy matnlarda ifodalashning eng keng tarqalgan vositasi metafora, epithetslar, qiyosiy inqiloblar, neologizmlar, takrorlashlar (leksik, fonetik, morfemik va boshqalar), dialektizmlar, professionalizm, haqiqatlar, toponimlar, nutq nomlari, ismlar va familiyalar va boshqalar. Badiiy asarni tarjima qilish boshqa sohalardan tubdan farq qiladi va asarlarning badiiy tarjimasining xususiyatlari juda ko‘p. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchiga ma‘lumot berishdan tashqari, adabiy tarjima ham estetik vazifalarni bajarishi lozim. Muayyan adabiy asarda yaratilgan badiiy tasvir (bu belgi yoki tabiatning tasviri bo‘ladimi), albatta, o‘quvchiga ta‘sir qiladi. Shu sababli, adabiy tarjimon asl matnning barcha xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Chet tilidan tarjima qilingan hikoyani, she‘rni yoki boshqa adabiy asarni o‘qiyotganda, matnni uning ma‘nosi, his-tuyg‘ulari va xarakterlari bilan qabul qilamiz. Tarjimaning asosiy maqsadiga erishish, ya‘ni o‘quvchi uchun muayyan tasvirni yaratish juda qiyin vazifadir. Shuning uchun, badiiy tarjimada yozuvchining o‘quvchiga qanday xususiyatlar berilishini ko‘rsatish uchun standart qoidalardan ayrim farqlar bo‘lishi mumkin. So‘zlarning so‘zma-so‘z tarjimasini adabiy asarning chuqurligi va ma‘nosini aks ettira olmaydi. Asar asl tabiatini ko‘rsatib berish badiiy tarjimonning asosiy vazifalaridan biri sanaladi, chunki biz ma‘lum bir iborani turli yo‘llar bilan ifodalashimiz mumkin. Tarjimon esa mana shunday iboralarni yozuvchi ko‘zi bilan ko‘rishi badiiy asarni boshidan oxirigacha qayta yozishi lozim. Tajribali tarjimon asardagi uslub va muhitni saqlab, ijodkor xohlagan namoyish etmoqchi bo‘lgan har qanday iborani hazil-mutoyiba, yumor, g‘am- qayg‘u, quvonchni yetkaza oladi.

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko’rsatadi, Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo’l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o’rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”², deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich[8]. Darhaqiqat, adabiyot borki, millatning ma’naviy olami bor, adabiyot borki, ezgu amal bor, ta’lim-tarbiya bordir. Milliy adabiyotimizda Abdulhamid Sulaymon o’g’li Cho’lponning roli alohida hamiyat kasb etadi. Cho’lpon asarlari g’aflatda qolgan xalqning qalblariga ilqlik olib kelishga yo’lchi bo’lib xizmat qiladi. Adibning “Kecha va kunduz” romani 1935-1937-yillarda yaratilgan. Ushbu asarda g’aflat uyqusida yotgan xalqning manzarasi turli obrazlar, Razzoq so’fi, Miryoqub, Akbarali mingboshi, Eshon bobo, Qurvonbibi va Zebi obrazlari orqali yorqin tasvirlangan. “Kecha va kunduz” kishini kecha, bugun, erta haqida o’ylashga undaydigan asar hisoblanib, yoshlarning kamol topishida, ularning ma’naviy boyligini oshirishda muhim o’rin tutadi. “Kecha va kunduz” asari ingliz hamda fransuz tillariga tarjima qilingan. Kun.uz tahririyatining 2019-yil 22-noyabrdagi ““Kecha va kunduz” ingliz tilida nashr etildi” deya nom olgan ruknida shunday deyiladi: “E’tiborli jihati Cho’lpon asari tarjimoni tarjimon va noshir amerikalik. Abdulhamid Sulaymon o’g’li Cho’lpon o’zining qisqa umri davomida o’zbek adabiyotining durdona asarlarini yaratishga ulgurgan ijodkordir. Ayniqsa uning “Kecha va kunduz”romani sevib o’qiladi, muntazam nashr etiladi. Amerikalik yosh tarjimon Kristofer Fort o’zbek adibi Cho’lponning "Kecha va kunduz" romanini ingliz tiliga o’g’irgan edi. Tarjimonning bugun ma’lum qilishicha, ushbu kitob AQShda nashrdan chiqqan. Fort nishona sonini (suratda) olganini aytib, keyingi haftadan Amazon orqali sotuvga qo’yilishini ta’kidlagan. Shuningdek, tarjimon O’zbekistonda unga yordam bergan bir qator tanishlariga minnatdorlik bildirgan. Kristofer Fort o’zbek tili, tarixi va madaniyatining bilimdoni hisoblanadi. Amerikalik tadqiqotchi Cho’lpon romanini ingliz tiliga o’g’irishga 2015-yili kirishgan. Orada O’zbekistonga bir necha marta sayohat qilgan, ijodkorlar bilan tanishgan. U ma’lum muddat O’zbekistonda yashagan va yurtimizga muntazam kelib turadi”³ [10]. Tarjimon Kristofor Fortning 2019-yil 22-noyabrda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida ta’kidlashicha esa “O’zbek yozuvchisi Abdulhamid Sulaymon o’g’li Cho’lponning “Kecha va kunduz” romani tarjimasi deyarli tamom bo’ldi, biroq men bugun qo’limga asarning kengaytirilgan nusxasini oldim, shuning uchun ayni damda uni e’lon qilish uchun qulay fursati bo’lib tuyuldi. Kelasi seshanba kuni u Amazon va Academic Studies Press nashriyoti orqali sotuvga chiqariladi. Mening Facebookda bo’lmasligimni oqilona maslahat bergan rafiqamdan tashqari, bir qancha insonlarga o’z minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. Jumladan, Isajon Sulton, Xosiyat Rustamova, Iqbol Mirzo, Yulduz Urmanova, Muruvvat G’afforova, Mohlaroy Ahmedova, Sohiba Soliyeva va boshqalar tarjima masalalarida ko’mak berishdi. Rebekka Gould doimiy himoyachi bo’lib kelgan va Oleh Kotsyuba ushbu loyihani boshlashimda muhim rol o’ynagan. Hamid Ismoilovga ma’lumot uchun va nashriyot masalalari bo’yicha yordam uchun rahmat. Boshqa so’z va ba’zi tarixiy faktlar uchun Adeeb Xolidga rahmat. Marianna Kamp menga Indianadagi tadbirga mezbonlik qildi va Cho’lponni anglash masalalarida o’z tavsiyalarini berdi. Men u ko’rsatib o’tgan hamma narsani tuzata olganimga ishonchim komil emas, lekin u meni bu borada yanglishganimga ishontira oldi. Aleksey Ulkoga otasi Grigoriy Ulkoning "Nostalgiya" kartinasi muqovasida foydalanishga yordam bergani uchun rahmat. Shuningdek, Iskandar Madg’oziyevga Cho’lpon haqidagi qomusiy bilimlari uchun, Bobur Jalolov va uning otasiga mualliflik huquqi bilan bog’liq masalalarda yordam bergani uchun

² Uzreport.news, “Shavkat Mirziyoyev Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy bog’ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrif buyurdi” ruknidan, 2020-yil, 5-may

³ Kun.uz tahririyatining 2019-yil 22-noyabrdagi ““Kecha va kunduz” ingliz tilida nashr etildi” nomli rukni

rahmat. Nihoyat, Aliyor Tilavovga va O‘zbekistonning Londondagi elchixonasiga ushbu loyihani amalga oshirishdagi yordami uchun o‘z minnatdorchiligimni bildiraman. ”Mazkur roman Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning ilk romani hisoblanib, tugallanmagan roman dilogiyasi sanaladi. Ushbu asar o‘quvchiga Turkistondagi avomning kundalik turmushdagi Rossiya imperiyasiga qarshi kurashiga nazar solish imkonini beradi. Romanda yosh bir qizning jaholat sabab keksa johilga uzatilish fojiasi adibning hassos qalami bilan yorqin bo‘yoqlarda aks etgan. Romanda aks ettirilgan voqea va hodisalar 1-jahon urushi endigina boshlangan kezlarga to‘g‘ri keladi hamda O‘zbekistondagi viloyatlardan birida bo‘lib o‘tadi. Romandagi qahramonlardan birining: “Biz yaqindagina eshon to‘poloni bo‘lib o‘tgan joydan uncha olisda emasmiz” degan so‘zlariga qarab, voqea Andijon viloyatining Dukchi eshon qo‘zg‘aloni bo‘lib o‘tgan Marhamat tumaniga yaqin bir joyda bo‘lib o‘tgan deb aytishimiz mumkin. Bu davr o‘zbek xalqi tarixida har tomonlama zulm ostida ezilgan davri edi. Mahalliy boylar bu davrda rus mustamlakachilari bilan og‘iz - burun o‘pishib, o‘z xalqining tarixiy [taraqqiyoti haqida emas](#), uni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy qoloqlikdan xalos etish to‘g‘risida emas, balki o‘zlarining rohat-farog‘atlari, moddiy farovonliklari haqidagina jon kuyuntirishar edi! Feodal tuzum va mustamlakachilik sharoitida xalq to‘g‘risida o‘ylovchi, uning qiyin, mashaqqatli hayotini yaxshilash haqida qayg‘uradigan biron siyosiy kuch mavjud emas edi. Yozuvchi ana shu tarixiy davrni badiiy tasvir va tahlil etish maqsadida asarni yozgan. Bu voqea Zebi timsolida ochib berishga qaratilgan. “Kecha va kunduz” asari qalblarimizga xalq boshiga yog‘ilayotgan adolatsizlikka qarshi kurashish haroratini beradi. Bu esa yozuvchi mahoratining nechog‘li o‘tkirligidan, hassosligidan dalolat beradi. O‘quvchi bu asarni o‘qish davomida jim turmaydi, balki junbushga keladi, adolatsizlikka qarshi isyon qiladi, jaholatning naqadar salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini anglab yetadi. “Kecha va kunduz” romani yoshlarning kamolotida muhimdir. Zero, adabiyotimiz sahnalarida mana shu kabi asarlarning yaratilishi va o‘rganilishi har bir unib o‘sib kelayotgan bugungi va kelgusi avlod vakillari uchun odobnomadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – Москва: Наука, 1999. – 896с.
2. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2006. – 336 с.
3. Christophor Forte “Day and Night”. – US: Academic Studies Press, 2019 292p
4. Foster, M. (1958) Translation from/in Farsi and English. Retrieved April, 2007, p20 from <http://www.parasa.ts.com/index.htm>
5. Karimov, Cho‘lpon: Ma‘rifiy roman 408 bet.
6. Naim Karimov, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon. –Toshkent: Fan, 1991, 9
7. Naim Karimov, Adabiyot va tarixiy jarayon- Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013, 355b
8. Quronov “Cho‘lpon hayoti va ijodiy merosi ”, 12-bet
9. Sharifiy, O.Sharafiddinov va F.Sultonov, “Kecha va kunduz ” haqida, Qizil O‘zbekiston , 2017, 6-avgust
10. Uzreport.news
11. Kun.uz